

MARKAZIY OSIYO MINTAQASI: XAVFSIZLIKKA TAHDID MANBALARI VA ULARGA QARSHI KURASHISH CHORALARI.

Mirzayev Nuriddin Xamidulayevich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasi tinglovchisi,
podpolkovnik*

Annotatsiya: *Markaziy Osiyoda osoyishtalik hamda barqaror taraqqiyotga e'rishish yo'lida mintaqa davlatlari tomonidan faol tashqi siyosat olib borilmoqda. Markaziy Osiyoni tinchlik hamda yaxshi qo'shniçilik hududiga aylantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ham ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Mazkur maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, bugungi global tahdid manbalari ko'payib borayotgan davrda, Markaziy Osiyo hududiy xavfsizligini ta'minlash mintaqa davlatlarining oldida turgan eng asosiy vazifalardan biriga aylandi. Davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy, transport va tranzit-logistika, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, davlat chegaralariga doir masalalarni yakuniga etkazish, suv resurslaridan adolatli foydalanish, xalqlar o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalar, do'stlik va yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash kabi yo'nalishlar rivojlantirilmoqda. Bular orasida, ayniqsa, Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'lik yo'nalishlar va hamkorlikdagi tashabbuslarni atroflicha tahlil qilish maqolaning asosiy vazifasi etib belgilangan. Mamlakatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik, ahil qo'shniçilik muhitini shakllantirish yaqin va o'rta muddatli strategiyada tashqi siyosatimizning ustuvor vazifasi sifatida qayd etilganligi ham ushbu yunalishda amalga oshirilayotgan tadbirlar ko'lamining kengayishiga va samaradorligining ortishiga turtki bo'ldi. Maqolada shuningdek, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati ortib borayotgani, uzining katta miqdordagi mineral va xom-ashyo resurslari tufayli xalqaro maydonda jiddiy e'tibor ob'ektiga aylanib borayotgani hamda mintaqada dunyoning yirik davlatlari strategik manfaatlari to'qnashuvi sodir bo'layotgani bilan bog'liq xulosalar berilgan. Ushbu maqolani yozishda qiyosiy taqqoslash, nazariy va umumantiquiy metodlardan foydalanildi.*

Kalit suzlar: *mintaqaviy xavfsizlik, ijtimoiy muvozanat, millatlararo ziddiyatlar, giyohvand moddalar savdosi, diniy ekstremizm, chegara muammosi, suv muammosi.*

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash siyosatini tahlil qilishda mintaqa tushunchasining murakkabligini xisobga olish kerak. Sababi, u ko'p qismli tuzilishni o'z ichiga oladi, ya'ni, mintaqaviy siyosat markaz va submintaqalar o'rtasidagi munosabatlar talqinida, shuningdek, "makro mintaqah" darajasida namoyon bo'ladi. Mavjud o'zgarish va yangilanishlar har bir mintaqaning rivojlanish vektorini, ijtimoiy va

siyosiy sub'yektlarning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatini shakllantiradi, shuningdek, tinchlik va xavfsizlikka tahdidlarning paydo bo'lish jarayoniga ham ta'sir qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Markaziy Osiyo submintaqasidagi hududiy xavfsizlik muammolari ham butun dunyodagi kabi terrorizm, ekstremizm, ommaviy qirgin qurollarining tarqalishi, yadro quroli xavfining ortishi, narkobiznes, atrof muhitning buzilishi, global isish, o'rmonlarning kesilishi, pandemik kasalliklarning avj olishi va boshqa tahdidlar bilan ifodalanmoqda. Suv resurslari taqsimoti bilan bog'lik urushlar xavfi ham tobora o'sib bormoqda. Shuningdek, mazkur mintaqa mamlakatlari ichki, endogen xarakterga ega bo'lgan ko'plab eski va yangi muammolar uchun ham hali munosib javob topa olmayotgani yo'q. Jumladan, ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, millatlararo ziddiyatlar, mintaqaviy elita va davlatlar boshqaruvidagi tuzilmalar o'rtasida mavjud qarama-qarshiliklar, aholining qashshoqlashishi, aholi daromadlaridagi farqning o'rtishi va ijtimoiy muvozanatning kuchayishi, yoshlar orasida ishsizlikning yuqori darajaga etishi, korrupsiyaning avj olishi, davlat tuzilmalarining past samaradorligi, har qanday siyosiy beqarorlik yuz berganda boshini ko'tarishga tayyor va dunyoviy hukmron boshqaruvlarni obro'sizlantirish uchun ijtimoiy muammolardan faol foydalanuvchi radikal islomizm, giyohvand moddalar savdosi va diniy ekstremizm ta'sirining o'sishi hamda oliy siyosiy xokimiyatning davomiyligi muammosi (chunki Markaziy Osiyoning aksariyat davlatlarida bunday davomiylik uchun aniq belgilangan va o'rnatilgan qoidalar mavjud emas) kabilar bugungi kunda hudud tinchligi uchun asosiy tahdid manbalari sifatida namoyon bo'lmoqda (1).

Davlatlararo mojarolar bilan bog'lik qarama-qarshiliklar ham davom etmoqda.

Birinchi navbatda, suv va energetika resurslari bo'yicha raqobat tufayli yuzaga kelgan "energiya delimitatsiyasi" muammosidir. Xususan, Amudaryo va Sirdaryoning transchegaraviy suv yullarida - Tojikistonda Rogun GESi va Qirg'izistonda Qambarota GESlari qurilishi bilan bog'liq keskinliklar yuzaga keldi. Ushbu loyihalar, ayniqsa O'zbekistonni tashvishga solmoqda, chunki mazkur GESlar qurilishi natijasida daryolardagi suv oqimining pasayishi ehtimoli juda yuqori;

Ikkinchidan, hal qilinmagan chegara mojarolari Markaziy Osiyoda xavfsizlikning jiddiy muammolariga aylanmoqda. Ushbu tortishuvlar mintaqaning aksariyat respublikalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmoqda. O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikistonda etnik xilma-xillikning yuqoriligi, umumiy tan olingan chegaralarning yo'qligi, yerlarning yetishmasligi va eng muhimi, qurg'oqchil iqlim sharoitida suv resurslarining kamayib borishi takrorlanib turuvchi to'qnashuvlarga alohida ijtimoiy-iqtisodiy tus bermoqda. So'nggi yillarda mazkur respublikalar o'rtasidagi keskinlashgan munosabatlar yangi etno-hududiy ziddiyatlarning paydo bulishini inkor etmaydi. Ularning ijtimoiy asoslari aholining doimiy o'sishi va qiyin ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ko'ra shakllanmoqda;

Uchinchidan, davlatlararo ziddiyatlar hududda tugallanmagan milliy davlatchilik va davlat mafkuralarini shakllantirishning murakkab jarayonlarini qo'zg'atmoqda. Ularning tarkibiy qismi ko'pincha qo'shnilar nisbatan hududiy da'volarga yoki davlatning mintaqaviy boshqaruvni qo'lga kiritish uchun qilingan da'volariga aylanmoqda.

Muhokama. Shiddat bilan to'planib borayotgan ichki muammolar bilan bir qatorda tashqi ta'sir va tahdidlar ham Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashga sezilarli salbiy ta'sir etmoqda (2).

Ular orasida transchegaraviy jinoyatchilik, terrorizm va giyohvand moddalar savdosining o'sishi hamda Afgonistondagi toliblarning xokimiyat tepasiga qaytishi va radikal islomizm markaziga aylanishi yaqin kelajakda mintaqa tinchligi uchun eng keskin tashqi ta'sirlardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo mintaqasi geografik pozitsiyasi nuqtai nazaridan ham ijobiy, ham salbiy jihatlarga ega. Bir tomondan, submintaqa davlatlari Shimol va Janub, Sharq va Garb o'rtasidagi savdo yo'llarining chorrahasida joylashgan bo'lib, bu iqtisodiy nuqtai nazardan juda foydali. Boshqa tomondan esa, ushbu davlatlarning hududi kuchli qo'shnilar - shimolda Rossiya, sharqda Xitoy, janubiy va janubiy-g'arbda muammoli islomiy mamlakatlar - Afg'oniston, Eron va Pokiston o'rtasida joylashgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari mustaqqillikni qo'lga kiritishi bilan ilgari unchalik sezilmagan geostrategik muammo - Markaziy Osiyoning geografik izolyasiyasi yanada aniq namoyon bo'ldi, ya'ni mintaqa jahon siyosiy va iqtisodiy oqimlari bo'ylab joylashgan xalqaro suv yullariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli ham, Markaziy Osiyo davlatlari o'zlarining geosiyosiy mavqelarini hisobga olgan holda, bir tomondan, nafaqat bir-biri bilan, balki qudratli qo'shnilar (birinchi navbatda Rossiya, Xitoy) bilan ham hamkorlikni yo'lga qo'yishga, boshqa tomondan, jahon bozoriga chiqishning yangi yo'llarini topishga intilmoqda. Mintaqadagi bir qator davlatlarning rahbarlari Buyuk Ipak yo'lini tiklashga ham harakat qilishmoqda. O'tgan 30 yil mobaynida savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish uchun ma'lum sharoitlar yaratildi. Xususan, Ozarbayjon, Afg'oniston va boshqa davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga imkon beruvchi Turkmaniston-Eron, Qozog'iston-Xitoy va yana bir qator yo'nalishlar bo'yicha temir va transport yollari ishga tushirildi. 2010 yilda logistika ko'rsatgichlari bo'yicha Qozog'iston mamlakatlar reytingida 62-o'rinni, O'zbekiston 68-o'rinni, Qirgiziston 91-o'rin, Turkmaniston - 114 va Tojikiston 131-o'rinni egalladi. Biroq mintaqaning asosiy geosiyosiy xususiyati va afzalligi - bu uning eng boy xom-ashyo zahiralari egaligi bo'lib, ular mintaqada jahon kuchlari manfaatdorligining asosiy sabablaridan biriga aylangan. O'rganilgan neft zahiralari dunyodagi aniqlangan zahiralarning tahminan 2,7 foizini, gaz esa 7 foizni tashkil etadi. Jahon uran zahiralari tahminan 25% va jahon ishlab chiqarishining 8% Qozog'istonga to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, mintaqa rivojini ta'minlashda hududiy masalalar ham muhim rol o'ynaydi. Markaziy Osiyo davlatlari chegaralarining sun'iy tabiati millatlararo

munosabatlarda jiddiy beqarorlashtiruvchi omilga aylanmoqda va bugungi kunda u davlatlarning va umuman Markaziy Osiyo mintaqasining siyosiy barqarorligi uchun xavf tug'diruvchi omillardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Ushbu sohadagi eng jiddiy masalalar Qirg'iziston - O'zbekiston, Tojikiston – O'zbekiston, Qozog'iston – O'zbekiston o'rtasida ma'lum hududiy ziddiyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanmoqda.

Xususan, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida qo'shma chegaralarning katta qismi delimitatsiya qilinganiga qaramay, 100 ga yaqin bahsli uchastkalar mavjud bo'lib, ular bo'yicha hali kelishuvga erishilmagan. Shu jumladan Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi chegara muammolarining mavjudligi.

AQSH, Rossiya va Xitoyning asosiy vazifalaridan biri bu mintaqada etakchi mavqega erishish va qolgan ikki davlatning birlashishiga yo'l qo'ymaslikdir. Shu bilan birga, bu uch davlatning mintaqadagi manfaatlari bir-biriga ham mos, ham qarama-qarshidir. Bir-biriga mos keladigan manfaatlar (terrorizm, giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash va boshqalar) AQSH, Xitoy va Rossiyani Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan birgalikda hamkorlik qilish zaruratini yaratadi. Qarama-qarshi manfaatlar ushbu uch mamlakatning har biri tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan alohida bitimlar tuzilishiga yoki SHHT doirasidagi Rossiya va Xitoy harakatlarini ikki tomonlama muvofiqlashtirishga olib keladi.

2018 yil iyunda Samarqandda "Markaziy Osiyo: bitta o'tmish va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va o'zaro farovonlik uchun hamkorlik" nomli xalqaro konferensiyada Markaziy Osiyo beshligi mamlakatlari o'rtasidagi mavjud muammolar, xatarlar va eng muhimi, hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. Forum 10 ta etakchi xalqaro tashkilotlarning, birinchi navbatda, BMTning ko'magi bilan o'tkazilib, unda 20 mamlakatdan 500 dan ortiq ishtirokchilar qatnashishdi. Bunday vakillik uchrashuvining asosiy mavzularidan biri mintaqadagi xavfsizlik muammolari, suv-ekologik sohadagi hamkorlik, Markaziy Osiyodagi tahlikalar va tahdidlarning oldini olishga ko'maklashish, shuningdek, kelgusida o'zaro hamkorlik istiqbollarini belgilab olishdan iborat bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev konferensiyada "Bizning umumiy maqsadimiz - Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy jihatdan rivojlangan va gullab-yashnagan mintaqaga aylantirish. Buning uchun biz milliy istiqbollarni mintaqaviy ustuvorliklar bilan birlashtirishimiz, ziddiyatlarni keltirib chiqaradigan va oziqlantiradigan sharoit va sabablarni yo'q qilishimiz kerak", - deb ta'kidladi (4). Xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan tezislar O'zbekiston rahbarining nutqida, asosan uning BMT minbaridan bergan so'nggi ma'ruzasi - yoshlarni qo'llab-quvvatlash, dindorlar ongida islomning haqiqiy qadriyatlarini rivojlantirish va mustahkamlash, shuningdek, chegara muammolarining yakuniy echimi bilan birlashtirdi. Shunday qilib, O'zbekiston rahbari yana bir bor Markaziy Osiyo xavfsizligi uchun eng ustuvor yunalishlarni aytib o'tdi. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha o'z pozitsiyasini bildirdi, shuningdek, qo'shnilarga bir paytlar mavjud bo'lgan qarama-

qarshiliklarni unutishni va o'zlari aytganidek konstruktiv mintaqaviy hamkorlikka o'tishni taklif qildi.

Evropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili Federika Mogerini Markaziy Osiyodagi xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratdi, chunki uning so'zlariga ko'ra, Yaqin Sharq va Afg'onistondagi vaziyat nafaqat ushbu keskinlik o'choqlarining yaqin qo'shnilarini, balki Evropani ham tashvishga solmoqda. Shuning uchun ham Eski dunyo kuchli Markaziy Osiyoga qiziqish bildirmoqda. Shu bilan birga, Mogerini jahon imperiyalarining global o'yinida kimningdir obro'siga aylanib qolmaslik uchun mintaqa mamlakatlari mustaqil bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi haqida gapirishda davom etar ekanmiz, so'z dunyoning deyarli barcha qismlari, qo'shni Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Eron va Xitoydan boshlanib, olisda ko'rinadigan Yaponiya va AQSH bilan yakunlanishi mumkin. Har bir mamlakat Markaziy Osiyo loyihalaridagi ishtirokini o'ziga xos yo'nalishlarga qaratgan holda ko'rmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozim, Markaziy Osiyodagi tashqi aktyorlarning faol ishtiroki ko'pincha yangi ajoyib o'yin sifatida tavsiflanadi. Ba'zi ekspertlar tahliliga ko'ra, agar Rossiya, Xitoy, AQSH, Evropa Ittifoqi, Turkiya, Eron, Hindiston va Pokiston o'rtasida geosiyosiy o'yinlar bo'lsa, ularning barchasi asosan Markaziy Osiyodagi energetika zahiralaridan foydalanishga qaratilgan bo'ladi. Ammo, mintaqani faqat yirik davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy kurash maydoni sifatida qabul qilinishiga to'sqinlik qiluvchi boshqa omillar ham bor.

Birinchidan, Markaziy Osiyo boshqaruvchilari nafaqat tashqi ishtirokchilarga bo'ysunadilar, balki ular bir-biriga qarshi turuvchi qay bir "o'yinchi" bilan hamkorlik qilishni o'zlari belgilaydilar;

Ikkinchidan, Markaziy Osiyoda energiya xavfsizligidan tashqari mintaqaviy siyosiy xavfsizlikka ichki tahdidlardan tortib, barqarorlikkacha, etnik ziddiyatlar va mintaqalararo munosabatlarning yomonligidan tortib, Afg'onistondan kelib turuvchi salbiy ta'sirlargacha tahdidlarning uzun ro'yhati mavjud.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlillar va Markaziy Osiyodagi donorlar tajribasi xavfsizlik sohasida 4 ta asosiy ustuvor jihatlarni quyidagicha ajratish imkonini beradi: xavfsizlik sohasidagi islohotlar, chegaraviy nazorat, jinoyatchilikka qarshi kurash va holatning chuqur tahlili.

O'zbekiston holatida, barcha bandlar bo'yicha ishlash mumkin. Chegaraviy nazorat va jinoyatchilikka qarshi kurash masalalari bo'yicha Xitoy va Rossiya hukumatlari bilan hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish. Xavfsizlik tarmog'i islohotlari - izechil jarayon. Ma'lum xavfga ega donorlar uchun ishning ushbu jihati murakkab masala sanaladi, chunki mintaqa davlatlari ularning ba'zi harakatlarida o'zlari uchun ochiqdan-ochiq tahdidni ko'radilar. Shuning uchun mazkur sohada dasturlarni ishlab chiqib, xavfsizlik tuzilmalariga yordam berish xatarli emasligiga ishonch xosil qilgan xolda ish kurish lozim.

Xususan, SHHT mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotrafika va uyushgan jinoyatchilik tahdidlariga qarshi kurashishga qaratilgan. Mintaqadagi boshqa tashkilotlar ham tinchlik va barqarorlik bo'yicha hukumatlararo muloqotlar uchun, kollektiv mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirishga intiluvchi muhim maydonga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish. 2019. <https://strategy.uz/files/news/45467/uzb.pdf>
2. Markaziy Osiyoda mushtarak jihatlar, tahdidlar va yangi imkoniyatlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. 16.02.2019. <http://uza.uz/oz/society/markaziy-osiya-mushtarak-zhi-atlar-tahdidlar-va-yangi-imko-15-02-2019>
3. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi. 16 Mart, 2018. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/>
4. Mirziyoev Sh. M. [Action Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021] Strategiya deystviy Respubliki Uzbekistan na 2017-2021 godi. Tashkent, 2017. // Narodnoeslovo. 7 iyun 2017 g.
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar. 17 avgust 2020 y. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Samarqand shahrida o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi.10.11.2017 y.